

Ilm va sanoat uyg'unligi: "O'zkimyosanoat" yangi innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'ymoqda

// 22.04.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ilm-va-sanoat-uyg-unligi-o-zkimyosanoat-yangi-innovatsion-ha>



Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi har qanday soha taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Bu yo'nalishda "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, jamiyat O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygan bo'lib, bu o'z navbatida innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish va sanoat samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.



Yaqinda "O'zkimyosanoat" AJning Innovatsiya va yangi texnologiyalarni joriy etish bo'limi vakillari Fanlar akademiyasi huzuridagi Ilg'or texnologiyalar markaziga tashrif buyurdilar. Tashrif davomida mutaxassislar markaz faoliyati bilan tanishib, kelgusida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan istiqbolli loyihalar yuzasidan fikr almashdilar.



Uchrashuvda ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq qilish hamda qo'shma loyihalarni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Bu kabi hamkorlik ilm-fan va sanoat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlab, tarmoqni yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.